Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2022-yil "2" avgustdagi 157-son
buyrug'iga
2-ilova

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tizimidagi Axborot-kutubxona muassasalari o'rtasida har yili o'tkaziladigan "Yilning eng yaxshi axborot-kutubxona mutaxassisi" ko'rik-tanlovini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida

NIZOM

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (keyingi o'rinlarda - Agentlik) tizimidagi Axborot-kutubxona muassasalari o'rtasida har yili o'tkaziladigan "Yilning eng yaxshi axborot-kutubxona mutaxassisi" ko'rik-tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Nizomda quyidagi asosiy ta'rif va tushunchalar qo'llaniladi:

mutaxassis - axborot-kutubxona muassasalarining xizmat rahbarlari, sektor mudirlari, bosh mutaxassislari, bosh bibliograflari, yetakchi mutaxassislari, yetakchi bibliograflari va 1-,2-toifali mutaxassislari;

hakamlar hay'ati – Agentlik va Milliy kutubxona mas'ul xodimlaridan iborat ko'rik-tanlovning g'oliblarini aniqlash bo'yicha, har yili Tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlanadigan guruh;

tanlov ishchi guruhi – Tashkiliy qo'mita tomonidan har yili tuziladigan, tanlovni tashkil qilish va o'tkazish uchun tuziladigan guruh;

nomzod - ko'rik-tanlovda ishtirok etish uchun tashabbus ko'rsatgan, Agentlik tizimidagi axborot-kutubxona muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassis;

baholash mezoni – Tashkiliy qo'mita tomonidan har yili tasdiqlanadigan, tanlov natijalarini aniqlab beruvchi ko'rsatkichlar;

axborot-kutubxona muassasasi – Agentlik tizimidagi Milliy kutubxona, Respublika yig'ma elektron katalog markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar va tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari;

tanlovning hududiy bosqichi – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyatlarda (14 ta hudud) hamda Milliy kutubxona, Respublika yig'ma elektron katalog markazi (1 ta hudud) miqyosida nomzodlar o'rtasida o'tkaziladigan bosqich;

tanlovning Respublika bosqichi – tanlovning hududiy bosqichi g'oliblari o'rtasida o'tkaziladigan yakuniy bosqich;

tanlov g'olibi – tanlov hududiy va respublika bosqichlarining yakuniy natijasiga ko'ra birinchi o'rin sohibi;

tanlov sovrindori - tanlov hududiy va respublika bosqichlarining yakuniy natijasiga ko'ra ikkinchi va uchinchi o'rin sohiblari.

II bob. Ko‘rik-tanlovning maqsad va vazifalari

3. Ko‘rik tanlovning maqsadi:

3.1. Axborot-kutubxona mutaxassislarining kasbiy malakasini oshirish va rivojlantirish;

3.2. Axborot-kutubxona mutaxassislarining innovatsion faoliyati va ijodiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy rag‘batlantirish;

3.3. Mutaxassislarning ilg‘or ish tajribasini ommalashtirish;

3.4. Kutubxonachilik kasbining ijobiy imidjini shakllantirish;

3.5. Axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislari o‘rtasida ijtimoiy hamkorlik va sog‘lom raqobatni rivojlantirish.

4. Ko‘rik tanlovning vazifalari:

4.1. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va uning tizimidagi tashkilotlar mutaxassislarining kasbiy mahoratlarini, ijodiy salohiyatini, ishbilarmonlik faolligini aniqlash va namoyon qilish;

4.2. Kutubxonachilarning o‘z ishiga bo‘lgan ijodiy yondashuvini, ijtimoiy va kasbiy imidjini shakllantirish, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

4.3. Mutaxassislarning ilg‘or ish tajribasini va inovatsion g‘oyalarini sohaga tatbiq etish;

4.4. Kutubxonachilik ishining rivoji, kitoblar targ‘iboti va yoshlar mutolaasini shakllantirish muammolariga jamoatchilikni jalb qilish.

III bob. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi

5. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish Tashkiliy qo‘mita tomonidan amalga oshiriladi.

6. Tanlov 3 bosqichda amalga oshiriladi:

6.1. **Tanlovning birinchi bosqichi**da:

har yili 1-avgustga qadar nomzodlarning arizalarini qabul qilish;

nomzodlar portfoliosini (nomzodning faoliyati, ma’lumoti, mutaxassisligi va b. to‘g‘risidagi to‘liq ma’lumotlarni) jamlash;

nomzodlar arizasi va ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tanlov talablaridan kelib chiqib saralash;

saralashdan o‘tgan nomzodlar arizalari va ularning portfoliolari tanlovning ikkinchi bosqichida ishtirok etish uchun taqdim etiladi (birinchi bosqichda g‘oliblar aniqlanmaydi).

6.2. Birinchi bosqich tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlangan hududiy ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

6.3. **Tanlovning ikkinchi bosqichi** – hududiy bosqichida:

tanlovning ikkinchi bosqichi har yili 1-sentyabrga qadar o‘tkaziladi;

birinchi saralash bosqichidan o‘tgan nomzodlar orasidan Tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlangan baholash mezonlari asosida hakamlar hay’ati g‘olib va sovrindorlarni aniqlaydi;

tanlov Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar miqyosida hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Respublika axborot-kutubxona markazi va Respublika yig‘ma elektron katalog markazida o‘tkaziladi;

ikkinchi bosqich g‘oliblari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va ular to‘plagan ballar tanlovning uchinchi - Respublika bosqichida ishtirok etish uchun taqdim etiladi.

6.4. Tanlovning birinchi va ikkinchi bosqichlari tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlangan “Hududiy ishchi guruh” tomonidan amalga oshiriladi.

6.5. **Tanlovning uchinchi bosqichi** - Respublika bosqichida:

tanlovning uchinchi bosqichi har yili 1-dekabrga qadar o‘tkaziladi;

tanlov Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar axborot-kutubxona markazlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, tuman va shahar axborot-kutubxona markazlari) hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va Respublika yig‘ma elektron katalog markazining 15 nafar hududiy bosqich g‘oliblari o‘rtasida o‘tkaziladi;

ikkinchi saralash bosqichi g‘oliblari orasidan Tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlangan baholash mezonlari asosida hakamlar hay’ati g‘olib va sovrindorlarni aniqlaydi.

6.6. Tashkiliy qo‘mita tomonidan har yili tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlar (hududiy va respublika bosqichlari uchun) hamda hakamlar hay’ati (hududiy bosqichlar va respublika bosqichi uchun) tasdiqlanadi.

6.7. Tanlovning ikkinchi va uchinchi bosqichida ballar tengligi vujudga kelganda hakamlar hay’ati tomonidan qo‘shimcha shartlar (vazifa yoki savollar berilishi) orqali g‘olib aniqlanadi.

IV bob. Tashkiliy qo‘mita

7. Tashkiliy qo‘mitaning vazifalari:

7.1. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish maqsadida hududiy hamda respublika darajasida ishchi guruhlarni tuzish va tasdiqlash.

7.2. Har yili sohadagi dolzarb muammo va vazifalarni inobatga olgan holda tanlovni o‘tkazish hamda natijalarini aniqlab berish uchun baholash mezonlarini 1-ilovadagi namunaviy shaklda ishlab chiqish va tasdiqlash.

Bunda,

tuman (shahar) axborot-kutubxona muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan ishtirokchilarning ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha to‘plagan umumiy ballariga 1.2 oshirilgan koeffitsiyentlar;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar axborot-kutubxona markazlarida faoliyat ko‘rsatayotgan ishtirokchilarning ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha to‘plagan umumiy ballariga 1.1 oshirilgan koeffitsiyentlar qo‘llaniladi;

oshirilgan koeffitsentlar qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar har yili tashkiliy qo‘mita tomonidan belgilanadi.

7.3. Ko‘rik-tanlovning hududiy va respublika bosqichida g‘olib va sovrindorlarni aniqlash uchun hakamlar hay’atini 2-namunaviy shakllarda tasdiqlash.

7.4. Tanlov bosqichlarini o‘tkazish muddatlarini, g‘olib va sovrindorlarni rag‘batlantirish tartibi hamda miqdorlarini belgilash.

7.5. Tanlovning g‘olib va sovrindorlarini moddiy rag‘batlantirish yuzasidan qaror qabul qilish.

8. Tashkiliy qo‘mitaning huquqlari:

8.1. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish maqsadida hududiy va respublika darajasida ishchi guruhlar tarkibiga o‘zgartirish kiritish.

8.2. Tanlovni o‘tkazish hamda natijalarini aniqlab berish uchun tasdiqlangan mezonlarga o‘zgartirish kiritish.

V bob. Tanlovni tashkil etish xarajatlarini qoplash hamda tanlovning g‘olib va sovrindorlarini moddiy rag‘batlantirish tartibi

9. Tanlovni tashkil etish bo‘yicha xarajatlar Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi (Tanlovda ishtirok etishi uchun xizmat safari bo‘yicha xarajatlar nomzod faoliyat ko‘rsatayotgan axborot-kutubxona muassasasi tomonidan qoplanadi).

10. Tanlovning g‘olib va sovrindorlarini moddiy rag‘batlantirish xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

11. Tanlovning g‘olib va sovrindorlarini moddiy rag‘batlantirish maqsadida, belgilangan miqdorda har oylik ustamalar belgilash maqsadida tegishli mablag‘lar g‘olib (sovrindor) nomzod faoliyat ko‘rsatadigan axborot-kutubxona muassasasi rivojlantirish jamg‘armasiga o‘tkazib beriladi.

12. **Tanlovning ikkinchi bosqichi** g‘olib va sovrindorlari quyidagi miqdorda moddiy rag‘batlantiriladi:

- tanlovning ikkinchi bosqichi g‘olibi (birinchi o‘rin sohibi) bir yil davomida, har oy O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to‘rt) barobari miqdorida;

- tanlovning ikkinchi bosqichi sovrindori (ikkinchi o‘rin sohibi) bir yil davomida, har oy O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 3 (uch) barobari miqdorida;

- tanlovning ikkinchi bosqichi sovrindori (uchinchi o‘rin sohibi) bir yil davomida, har oy O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 2 (ikki) barobari miqdorida.

13. **Tanlovning uchinchi bosqichi** g‘olib va sovrindorlari quyidagi miqdorda moddiy rag‘batlantiriladi:

- tanlovning uchinchi bosqichi g‘olibi (birinchi o‘rin sohibi) bir yil davomida, har oy O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o‘n) barobari miqdorida;

- tanlovning uchinchi bosqichi sovrindori (ikkinchi o‘rin sohibi) bir yil davomida, har oy O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 8 (sakkiz) barobari miqdorida;

- tanlovning uchinchi bosqichi sovrindori (uchinchi o‘rin sohibi) bir yil davomida, har oy O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 6 (olti) barobari miqdorida.

VI bob. Yakuniy qoidalar

14. Tanlovning g‘olib va sovrindorlariga to‘lanadigan moddiy rag‘batlantirish summasi Axborot kutubxona muassasalari xodimlari mehnatiga haq to‘lash fondiga kiritiladi hamda qonunchilikda belgilangan tartibda ularga yagona ijtimoiy to‘lov hisoblanadi hamda ularning moddiy rag‘batlantirish hisobiga olingan daromadlariga qonunchilikda belgilangan tartibda soliq solinadi.

15. Tanlovning ikkinchi, uchinchi bosqich g‘olib va sovrindorlariga yil davomida homiladorlik va tug‘ish ta’tili davrida yoki mehnat shartnomasi bekor qilinganda har oylik ustamalar to‘lanmaydi hamda ishlatilmagan mablag‘lar moliya yili yakunida O‘zbekiston Respublikasining axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga qaytariladi.

16. Mazkur nizomga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish Agentlik buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.